XALQ DEPUTATLARI ULUG‘NOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 15-avgust VI-60-93-1-26-K/24 Ulug‘nor tumani

Ulug‘nor tumanning ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6- va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i belgilangan.

Ma’lumki, Ulug‘nor tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi tuman Komissiyasining 2024-yil 10-iyuldagi 7-sonli bayonnomasi bilan Ulug‘nor tumanining Farg‘ona, Namangan viloyatlar hamda Bo‘ston, Baliqchi tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosini bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Ulug‘nor tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024-yil 12-apreldagi 03/08-3449-sonli xati bilan Kadastr agentligi Andijon viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 09-iyuldagi 127-sonli xat bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga murojaat qilib, tuman kengashining sessiyasida “Ulug‘nor tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 12-apreldagi 03/08-3449-sonli xati;

- Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 09-iyuldagi 127-sonli xati;

- tuman ishchi komissiyasining 2024-yil 10-iyuldagi 7-sonli bayonnomasi ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Ulug‘nor tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi) “Ulug‘nor tumanining Farg‘ona, Namangan viloyatlar hamda Bo‘ston, Baliqchi tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Ulug‘nor tumanining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni **1-ilovaga**, tumanning ma’muriy-hududiy chegara chizig’ining sxemasi **2-ilovaga,** tumanning chegaralarini belgilashda dala kuzatuv ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha tavsifi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) Ulug‘nor tumaniningFarg‘ona, Namangan viloyatlar hamda Bo‘ston, Baliqchi tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri (G.Bobojonova) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Tuman Kengashining mazkur qarori tasdig‘i Xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi

AXMADJONOV
MUXAMMADISLOMIDDIN
MUXAMMADSOBIROVICH

Xalq deputatlari Ulug‘nor tumani
Kengashining
2024-yil 15-avgustdagi
VI-60-93-1-26-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Ulug‘nor tumanining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Tuman nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	**Ulug‘nor tumani**	**125357,48**	**42089,45**


Xalq deputatlari Ulug‘nor tumani
Kengashining
2024-yil 15-avgustdagi
VI-60-93-1-26-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Ulug‘nor tumanining ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining

SXEMASI

Andijon viloyati Ulug'nor tumanining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining

SXEMASI



Shartli belgilar

Ulug'nor tumanining chegarasi va yer maydoni

1 *Ulug'nor tumani chegarasining burilish nuqtasi va raqami*

Xalq deputatlari Ulug‘nor tumani
Kengashining
2024-yil 15-avgustdagi
VI-60-93-1-26-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Ulug‘nor tumanning chegaralarini belgilashda dala kuzatuv ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha
TAVSIFI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrdagi 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi” hamda Kadastr agentligining 2023-yil 29-noyabrdagi 84-01-sonli yig‘ilish bayonining **12-bandiga** muvofiq, Andijon viloyati Ulug‘nor tumanning ma’muriy-hududiy chegaralari o‘rganilib chiqilib, natijada tumanlar bilan chegaralar quyidagicha kelishildi.

Ulug‘nor tumanning tashqi chegarasi quyidagicha ta’riflandi: Namangan viloyati, Ulug‘nor va Baliqchi tumanlar chegara chiziqlari tutashgan joyidagi Sirdaryo daryosi o‘zanidan joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 kordinatalar tizimida, shimoliy kenglik 40°53'16,034", sharqiy uzunlik 71°43'27,756")* **A dan B gacha Baliqchi tuman yerlari bilan 1-22-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:**

1-nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosining o‘zanidan sharqiy yo‘nalishda 68 metr masofani o‘tib, keyin daryoning suv oqimga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan shimoliy yo‘nalishda 167 metr masofada daryo irmog‘iga o‘tadi va daryo irmog‘ining suv oqimga qarshi o‘ng tomonidan sharqiy yo‘nalishda 714 metr, so‘ngra umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 707 metr masofada ko‘prikni kesib o‘tib, ko‘prik bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'27,984", sharqiy uzunlik 71°44'25,118").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 175 metr masofadan zovurga o‘tadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga o‘ng tomonidan 225 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, yo‘lning g‘arb tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 496 metr masofani o‘tib, zovur joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'09,447", sharqiy uzunlik 71°44'08,117").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 700 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 463 metr, so‘nra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 419 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'54,020", sharqiy uzunlik 71°45'02,993").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 513 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 338 metr, so‘nra sharqiy yo‘nalishda 473 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'33,925", sharqiy uzunlik 71°45'45,399").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 745 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va zovurning chap tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 847 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 261 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 688 metr, masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'24,948", sharqiy uzunlik 71°46'43,575").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1 226 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 201 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'18,562", sharqiy uzunlik 71°47'42,623").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 280 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 271 metr masofa dala tuproq yo‘lingi kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'03,434", sharqiy uzunlik 71°47'32,142").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 114 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 278 metr masofani o‘tib, Mazgil kanali bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°50'52,493", sharqiy uzunlik 71°47'36,514").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Mazgil kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 474 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 381 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°50'37,517", sharqiy uzunlik 71°48'06,887").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib zovur bilan tutashadi, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 694 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 819 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 112 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°49'53,115", sharqiy uzunlik 71°47'36,149").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 91 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 271 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 329 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°49'42,335", sharqiy uzunlik 71°47'14,140").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 241 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 201 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 109 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va zovurning o‘ng tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1 004 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°49'06,881", sharqiy uzunlik 71°47'52,266").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda

470 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 450 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 574 metr masofa masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'24,340", sharqiy uzunlik 71°48'12,391").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1 284 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 346 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'58,214", sharqiy uzunlik 71°49'11,345").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 603 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yo‘lning janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 631 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 256 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 89 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'59,775", sharqiy uzunlik 71°50'14,858”).*

16-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 512 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 567 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'28,567", sharqiy uzunlik 71°49'59,455”).*

17-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 430 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 584 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 780 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 456 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'07,632", sharqiy uzunlik 71°51'24,983").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 561 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tadi, keyin yo‘lning janub tomonidan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 40 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 133 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 30 metr masofani o‘tib, beton ariq bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'07,503", sharqiy uzunlik 71°51'56,105").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i beton ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 241 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 68 metr masofada Katta Andijon kanalini kesib o‘tib, so‘ngra kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 217 metr masofani o‘tib, Katta Andijon kanali bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'56,151", sharqiy uzunlik 71°51'43,418").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i Katta Andijon kanaldan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha 118 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 357 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'42,136", sharqiy uzunlik 71°51'38,624").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lning sharq tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 828 metr masofada ariqqa o‘tadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 325 metr masofada Sherqo‘rg‘on zovurini kesib o‘tib, Ulug‘nor, Baliqchi va Bo‘ston

tumanlar chegara chiziqlari kesishgan zovur bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'17,074", sharqiy uzunlik 71°52'15,042").*

B dan D gacha Bo‘ston tuman yerlari bilan 22-27-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

22-nuqtadan chegara chizig‘i Sherqo‘rg‘on zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 478 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 1 802 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1 434 metr masofada Sariqjo‘ga zovuriga o‘tadi va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan 402 metr masofani o‘tib, Katta Andijon kanali bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'45,239", sharqiy uzunlik 71°49'33,637").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i Katta Andijon kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1 683 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1 074 metr masofani o‘tib, beton kanal bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'31,912", sharqiy uzunlik 71°48'31,412").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i Katta Andijon kanalidan Sariqjo‘ga zovuriga o‘tadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1 132 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'08,454", sharqiy uzunlik 71°49'07,284").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i Sariqjo‘ga zovurida zovurga o‘tadi va janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 5 553 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°41'08,994", sharqiy uzunlik 71°48'55,665").*

26-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 41 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 583 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va yo‘lning janub tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 45 metr masofada ariqqa o‘tadi, keyin ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 83 metr masofani o‘tib, Andijon va Farg‘ona viloyatlar chegara chiziqlari kesishgan zovur bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°40'47,280", sharqiy uzunlik 71°48'51,144").*

D dan E gacha Farg‘ona viloyati yerlari bilan 27-35-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

27-nuqtadan chegara chizig‘i Shimoliy zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 637 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3719 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1388 metr masofani o‘tib, zovurning o‘ng tomondagi dyukeriga tutashadi, so‘ng chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 96 metr masofada Andijon kanali va avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, zovurning chap tomondagi dyukeriga tutashadi, keyin zovurdan Shimoliy zovurga o‘tadi, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1 161 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1 113 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 517 metr, so‘ng g‘arbiy-

shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1836 metr va g‘arbiy yo‘nalishda 1 007 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°42'57,312", sharqiy uzunlik 71°41'51,202").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan Shimoliy zovuriga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1 433 metr masofani o‘tib, Yozyovon zovuri bilan tutashadi, keyin Yozyovon zovurining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 565 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 373 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3 220 metr masofani o‘tib, Yozyovon zovuri bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'49,248", sharqiy uzunlik 71°39'16,548").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i Yozyovon zovuridan Oq-oltin zovuriga o‘tadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Oq-oltin zovurining suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 948 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 551 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 919 metr, keyin zovurni chap tomonidan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1311 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 802 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 234 metr masofani o‘tib, Oq-oltin zovuri bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'49,335", sharqiy uzunlik 71°37'55,318").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Oq-oltin zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 615 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1507 metr, so‘ngra so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 651 metr masofani o‘tib, keyin chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 51 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ngra dala yo‘ling janub tomonidan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 180 metr masofada avtomobil yo‘liga tutashadi, so‘ng avtomobil yo‘lidan beton ariqqa o‘tadi va g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan 28 metr masofada zovurga o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2924 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'58,432", sharqiy uzunlik 71°38'14,835").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 133 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1 021 metr masofadan keyin chegara quruq chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 28 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va dala yo‘lining janub tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 559 metr masofadan so‘ng quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 36 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bilan tutashadi, keyin yo‘lining janub tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 109 metr masofada beton ariq bilan tutashadi, keyin beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 4134 metr masofadan keyin, quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 58 metr masofani o‘tib, G‘arbiy Yozyovon zovuri bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'50,076", sharqiy uzunlik 71°35'13,413").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i G‘arbiy Yozyovon zovurining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga

olgan holda 2 610 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'11,683", sharqiy uzunlik 71°34'45,777").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i G‘arbiy Yozyovon zovurining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 7682 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgna 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'47,474", sharqiy uzunlik 71°32'13,269").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda G‘arbiy Yozyovon zovurining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1 251 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3 064 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'05,313", sharqiy uzunlik 71°29'43,312").*

E dan A gacha Namangan viloyati yerlari bilan 35-1-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

35-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 7 524 metr masofani o‘tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 68 metr masofani o‘tib, so‘ng qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 76 metr masofada o‘tadi, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 55 metr masofada R-120 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'15,911", sharqiy uzunlik 71°34'53,732").*

36-nuqtadan chegara chizig‘i R-120 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3914 metr masofani o‘tadi, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda yo‘lining shimol tomoni bilan 1714 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'48,067", sharqiy uzunlik 71°32'46,838").*

37-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 4 343 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 911 metr masofada ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yonalishda 2 359 metr masofada o‘tadi, so‘ngra yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1 420 metr masofani o‘tib, tomorqa chegarasi bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°51'08,720", sharqiy uzunlik 71°36'31,570").*

38-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa chegarasi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-sharqiy yo‘nalishda 234 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 628 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 436 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 236 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 115 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 106 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 413 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 179 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 180 metr masofada o‘tadi, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 349 metr masofada o‘tadi, so‘ngra avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, quruq chegara chizig‘i orqali 87 metr masofada, zovur bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'08,184", sharqiy uzunlik 71° 37' 58,787").*

39-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 49 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 155 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 123 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 273 metr masofada o‘tadi,

keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 228 metr. keyin sharqiy yo‘nalishda 404 metr, masofada o‘tadi, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 675 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 160 metr masofada o‘tadi, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Oxunboboyev kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1 045 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 229 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 125 metr masofani o‘tib, Sirdaryo daryosi o‘zanida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'11,990", sharqiy uzunlik 71° 39' 28,413").*

40-nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosi o‘zani bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 107 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 1068 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1220 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1089 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1 955 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1490 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 796 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqta bilan tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'16,034", sharqiy uzunlik 71° 43' 27,756").*